

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI BOTANIKA KAFEDRASI
GERBARIY FONDIDAGI BERBERIDACEAE JUSS. OILASI VAKILLARINING
TAKSONOMIK VA BIOLOGIK TAHLILI**

Erkaboyeva Shaxnoza Rashid qizi

SamDU Magistranti

shaxnozaerkaboyeva378@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada Samarqand davlat universiteti (SamDU) qoshidagi "Gerbariy – Botanika tadqiqotlar ilmiy laboratoriyasi" da saqlanayotgan Berberidaceae Juss. oilasiga mansub namunalar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida 1924–1965-yillar oralig‘ida yig‘ilgan tarixiy materiallar, xususan Berberis, Leontice va Bongardia turkumlari turlari, ularning tarqalish areallari hamda nomenklaturadagi o‘zgarishlari batafsil o‘rganildi. Maqolada Urgut botanik-geografik rayoni va Omonqo‘ton tizmasidagi turlarning zamonaviy holati hamda yirik botanik olimlarning fond rivojidadagi hissasi yoritilgan.

Tayanch so‘zlar; SamDU, Gerbariy fondi, Berberidaceae oilasi.

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье анализируются образцы, относящиеся к семейству Berberidaceae Juss., хранящиеся в научной лаборатории «Гербарий – Ботанические исследования» при Самаркандском государственном университете (СамГУ). В ходе исследования были детально изучены исторические материалы, собранные в период с 1924 по 1965 годы, в частности виды родов Berberis, Leontice и Bongardia, их ареалы распространения и номенклатурные изменения. В статье освещается современное состояние видов в Urgutском ботанико-географическом районе и на хребте Аманкутан, а также вклад крупных ученых-ботаников в развитие фонда.

Ключевые слова: СамГУ, гербарный фонд, семейство Berberidaceae.

ABSTRACT

This scientific article analyzes specimens belonging to the Berberidaceae Juss. family, preserved in the "Herbarium – Scientific Laboratory of Botanical Research" at Samarkand State University (SamSU). The study provides a detailed examination of historical materials collected between 1924 and 1965, specifically focusing on species within the Berberis, Leontice, and Bongardia genera, their distribution ranges, and nomenclatural changes. Furthermore, the article highlights the current status of species in the Urgut botanical-geographic region and the Omonqutan ridge, as well as the significant contributions of prominent botanists to the development of the herbarium collection.

Keywords: *SamSU, Herbarium fund, Berberidaceae family.*

I. KIRISH

1.1. SamDU Gerbariy fondining shakllanish tarixi

Samarqand davlat universiteti botanika kafedrasida gerbariy kolleksiyasi o‘zining bir asrlik boy tarixiga ega bo‘lib, uning tashkil etilishi 1927-yilda universitetning birinchi rektori, professor N.A. Merkulovich nomi bilan boshlangan. Dastlabki fondni shakllantirishda 1927–1941-yillar davomida N.A. Merkulovich, M.G. Popov, Q.Z. Zokirov, E.I. Proskoryakov kabi taniqli olimlar respublikamiz va chegaradosh hududlardan yig‘gan namunalar asos bo‘lgan.

Hozirgi kunda ushbu kolleksiya SamDU Biologiya fakulteti binosida joylashgan bo‘lib, jami 20 mingga yaqin gerbariy namunasini o‘z ichiga oladi. Shundan 16 ming namuna ilmiy, 4 mingtasi esa o‘quv-metodik maqsadlar uchun mo‘ljallangan. 2017–2022-yillarda universitet rahbariyati tashabbusi bilan ushbu nodir xazina uchun alohida binoda tashkil etilib, "Gerbariy – Botanika tadqiqotlar ilmiy laboratoriyasi" deb nomlandi.

1.2. Tadqiqotning dolzarbligi

Berberidaceae Juss. oilasi vakillarini Urgut botanik-geografik rayoni va Zarafshon tizmasi sharoitida o‘rganish mintaqada bioxilma-xilligini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, tarixiy gerbariy ma’lumotlarini zamonaviy dala tadqiqotlari bilan qiyoslash orqali turlarning tarqalish dinamikasini aniqlash dissertatsiya ishining ilmiy qiymatini belgilaydi.

II. MATERIALLAR VA METODLAR

2.1. Tadqiqot obyekti

Tadqiqot obyekti sifatida SamDU Gerbariy fondida 2565 va 2566-raqamli shkaflarda saqlanayotgan Berberidaceae oilasining vakillari tanlab olindi. Asosan uchta turkum: *Berberis* L., *Leontice* va *Bongardia* turkumlari o‘rganildi. Biz Berberidaceae oilasi vakillarini o‘rgandik. Bu oila vakillari gerbariy bilan tanishib chiqdik. (1-rasm)

**1-rasm****2.2. Metodologiya**

Fond tahlili: 1924-yildan boshlab terilgan tarixiy namunalar taksonomik jihatdan qayta tekshirildi.

Ekspeditsiya ma'lumotlarini o'rganish: Universitet tarixidagi 4 ta yirik (Angren, Zarafshon, Pomir-Oloy va Hisor) ekspeditsiyalar davomida to'plangan ma'lumotlar tahlil qilindi.

Qiyosiy-morfologik usul: Gerbariy namunalaridagi o'simlik organlarining saqlanish darajasi va ularning etiketka ma'lumotlari (yig'ilgan joyi, sanasi, muallifi) o'rganildi.

III. NATIJALAR**3.1. Olimlarning ilmiy hissasi va kashfiyotlar**

Fondagi ilmiy gerbariyning katta qismi Zarafshon vodiysi florasiga tegishli. Professor N.A. Merkulovich ko'plab ekspeditsiyalar natijasida "Флора Узбекистана" asarining I tomiga muharrirlik qilgan. Akademik Q.Z. Zokirov esa 1938-yilda sho'ra turkumining yangi turini kashf etib, ustoz sharafiga Salsola Merkuloviczi Zak. deb nomlagan. Shuningdek, u Heteroceryum, Lappula, Rochelia va Onosma turkumlaridan ham yangi turlarni aniqlagan.

3.2. Berberidaceae oilasi namunalarining statistikasi

Fondagi tahlillar natijasida quyidagi miqdoriy ko‘rsatkichlar olindi:

Shkaf nomeri	Turkumlar nomi	Turlar nomi	Gerbariy namunalari soni	Terilgan yili	Gerbariy namunalarini yig‘gan olimlar
2566	Berberis	Berberis Oblonga	11	1939-1940-1950-1954-yillar	Rahimberdieva X Juraev.Samirjonova Ishnatov Sherbekov.
		Berberis sp	11	1935-1938-1947-yillar	Zakirov
2565	Leontica	Leontica eversmannii	5	1924-1936-1931-1965-yillar	Muradov D Zakirov
		Leontica darwasica	3	1940-1941-yillar	Eshmatov Garayev
	Bongardia	Bongardia chrysogonum	6	1931-1941-yillar	Merkulovich Zokirov

Yuqorida jadvalda ko‘rinib turibdiki SamDU Gerbariy fondidagi Berberidaceae oilasi vakillarining gerbariy namunalari asosan 1931- yillardan boshlab terilgan namunalar hisoblanib ularni asosan “Cho‘pon ota “ pasttekisligi, Ohalik, Omonqo‘ton,Urgut tog‘lari hududida tarqalgan namunalardan terilgan bu namunalar judayam yaxshi holatda saqlangan bo‘lib, ular mahsus ekspeditsiyalar natijasida terilgan. Asosan 3 ta turkum yani Berberis L,Leontica va bongardia turkumlari o‘rganildi.Terilgan namunalar asosan Samarqand viloyati hududida , Qarshi, Turkmaniston hududlaridan terilgan namunalar hisoblanadi. O‘zi asosan bu oila vakillarining ko‘pchiligi Omonqo‘ton tog‘lari hududdida va Urgut tog‘larining o‘rta qismlarida tarqalgan. Hozirgi kunda Cho‘pon ota tekisligida bu oila vakillarini topish biroz mushkuldir. Oila vakillarining bazi turlarini nomlashda bazi o‘zgarishlar kiritilgan

bo‘lib avvalgi malumotlarga ko‘ra *Leontica chrysogonum* turi hozirgi kunda o‘zgartirilgan bo‘lib hozirgi kunda *Bongardia* turkumini ichida *Bongardia chrysogonum* turi sifatida kiritilgan.

IV. MUHOKAMA

4.1. Hududiy tarqalish va ekologik holat

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, *Berberidaceae* oilasi vakillari asosan Omonqo‘ton tog‘lari va Urgut tog‘larining o‘rta qismlarida tarqalgan. Shuningdek, namunalar Samarqand viloyati, Qarshi va hatto Turkmaniston hududlaridan ham yig‘ilgan. Biroq, tarixiy manbalarda ko‘rsatilgan Cho‘ponota pasttekisligida hozirgi kunda bu oila vakillarini topish murakkab ekanligi aniqlandi.

4.2. Gerbariy namunalarining saqlanishi

1931-yildan buyon yig‘ilgan ushbu namunalar maxsus ekspeditsiyalar mahsuli bo‘lib, hozirgi kunda juda yaxshi holatda saqlangan. Bu esa kelajakda genetik va biokimyoviy tadqiqotlar o‘tkazish uchun zamin yaratadi. 2021-yilda SamDU gerbariysining "Herba SamDU" nomi bilan xalqaro platformada 3100 talik ro‘yxatdan joy olishi, laboratoriyaning jahon standartlariga mos kelishini ko‘rsatadi.

XULOSA

SamDU Gerbariy fondidagi *Berberidaceae* oilasi vakillarining tahlili mintaqa florasining boy o‘tmishini va zamonaviy holatini ko‘rsatib beradi. Tadqiqot natijasida 3 ta turkumga mansub 30 dan ortiq ilmiy namunalar tahlil qilinib, ularning taksonomik holati aniqlashtirildi. Mazkur ma‘lumotlar Urgut botanik-geografik rayonida ilmiy izlanishlarni davom ettirish va kamayib borayotgan turlarni muhofaza qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishda xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar:

1. SamDU Gerbariy laboratoriyasi arxiv hujjatlari (Shkaf № 2565, 2566).
2. N.A. Merkulovich va Q.Z. Zokirov ilmiy maqolalari to‘plami.
3. "Флора Узбекистана", I-II jildlar.
4. "Herba SamDU" xalqaro gerbariylar platformasi ma‘lumotlari.